

Olmaotada O'zbekistonning sayyohlik salohiyati taqdimoti bo'lib o'tdi

2025 25 Aprel

Olmaotada "O'zbekiston – Ipak yo'li durdonasi" deb nomlangan O'zbekistonning sayyohlik salohiyati taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi faol ishtirok etdi.





Tadbir O'zbekiston Respublikasining Qozog'istondagi elchixonasi tomonidan Turizm qo'mitasi ko'magida tashkil etildi va Qozog'istonning turizm sohasi, ishbilarmon doiralari va ommaviy axborot vositalari vakillarini jamladi.



